



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida texnologiyalar va ta'lim metodlari

Xoshimova Dilnoza

NamDPI, Maktabgacha ta'lim

yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Keltirilgan ushbu maqolada MTTlarda tarbiyalanuvchilarni ta'limiy faoliyatini innovatsion loyihalar asosida amalga oshirish yoritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, intellekt, texnologiya, ta'lim, metod.

Abstract: The implementation of educational activities of children in preschool educational organizations based on innovative projects.

Keywords: Innovation intelligence, technology, method, education.

Kirish: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi bolalarni maktab bosqichida o'qishga tayyorlashdir. Innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa yangi texnologiyalarni hosil qiladi. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalar o'yinli texnologiyalar bilan uzviy bog'langan. Tarbiyachining faoliyati yaxshi bo'lishi uchun u mavzu asosida ish olib borishi, shaxsga yo'nalgan bo'lishi va boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda interfaol metodlardan tarbiyachi foydalana bilishi kerak. Bu metodlardan foydalanish orqali bola o'zining individual qobiliyatlarini namoyish qiladi, mantiqiy o'yinlar o'ynash bolaning aqliy qobiliyatlarini o'stiradi, bolani ham ruhiy ham jismoniy rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalarni o'z oldiga maqsad qo'yib unga erishishga o'rgatadi. 21-asr



texnologiyalar asri sanaladi. Hozirda jamiyatimizdagi har bir oilada texnologik qurilmalar: televizor, noutbook, planshet, telefonlar va boshqa turdagi texnikalar kundalik hayotda keng qo'llaniladi. Ayni paytda MMTlarni to'liq texnologiya vositalari bilan qamrab olish bosqichiga o'tilmoqda. Bunday yondashuv o'z navbatida faoliyatning ta'limiy jarayonlarida turli xildagi ko'rgazmalardan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkonini kengaytiradi. Hozirgi kunda barcha texnik vositalar eng yaxshi bilimlar manbasi hisoblanadi. Faqat MTTlarda ulardan tog'ri va oqilona foydalanish ta'limiy faoliyatlar jarayonini yanada samarali qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun alohida Axborot Kommunikatsiya texnologiya xonasini tashkil qilish foydali hisoblanaadi. U yerda bolalar navbat bilan ta'limiy faoliyat o'tkazishadi. Bolalar barcha innovatsion texnologiya vositalar, turli xil robot o'yinchoqlar, roboto-texnika vositalari, ko'rgazmalar vositasida ta'limiy faoliyat olib borishsa ularga yaxshi ta'sir o'tkazadi. Xorijiy tillardagi inglizcha, rus tilidagi multfilimlarning variantlarini ko'rish va eshitishni ham, xorijiy tilda jismoniy daqiqa, turli xil o'yinlar o'tkazilishi ham ularni til o'rganishlarini ancha mustahkamlaydi.

Metod - Ta'lim jarayonida ma'lum maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan usul va yondashuvlar yig'indisi, Metod orqali bilim, ko'nikma va malakalar o'rgatiladi. Metodning asosiy turlariga

1. Og'zaki metodlar: O'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan axborot og'zaki yetkaziladi: Hikoya qilish, tushuntirish, suhbat.
2. Amaliy metodlar: Bolalar amaliy faoliyat orqali bilim oladi, mashqlar, tajribalar, o'yinlar.
3. Ko'rgazmali metodlar: Bolalarga ko'rgazmali vositalar yordamida tushuntirish beriladi: Rasmlar, multimediali taqdimotlar.
4. Tadqiqot metodlari: Bolalarga mustaqil ravishda muammolarni hal qilish va yangi bilimlarni kashf etish imkonini beradi: Tajribalar, kichik tadqiqotlar.



5. O'yin metodlari: Ta'lim jarayoni o'yin orqali amalga oshiriladi: Rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalarning joriy etish bolalarning ijodiy fikirlashini rivojlantirish , o'qishga bo'lgan qiziqishini amalga oshiriladi.

- 1 O'yin texnologiyalari
- 2 STEAM texnologiyasi
- 3 M Mantessori metodikasi
- 4 Axborot Kommunikatsiya texnologiyalari
- 5 Lego konstruktorlari va robototexnika
- 6 Story telling (hikoya orqali o'qitish)
- 7 Ekologik ta'lim
- 8 Sensorli ta'lim texnologiyasi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion ma'lumotlari va texnologiyalarni tashkil etish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nafaqat bilim olishiga bo'lgan ehtiyojini, balki o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirib ularni maktab ta'limiga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.R Qodirova , ,SH,Q Toshpo'latova , N.M Qayumova . M.N A'zamova “Maktabgacha pedagogika” Tafakkur nashriyoti 2019 yil
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun “Ilk Qadam” Davlat o'quv Dasturi Toshkent 2022 yil
3. “O'yin orqali ta'lim olish ” Metodik qo'llanma Toshkent , 2020 yil.